

UO‘K(UDC, УДК): 82-3:325.8

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA POSTKOLONIAL YONDASHUV,  
MARGINALIZM VA NEKROSIYOSAT FENOMENLARINING  
IFODALANISHI<sup>28</sup>***Tursunboyeva Shohzoda Kenjaboy qizi**Guliston davlat universiteti**mustaqil tadqiqotchisi,**Guliston, O‘zbekiston**E-mail: [tursunboyevashahzoda98@gmail.com](mailto:tursunboyevashahzoda98@gmail.com)**<https://orcid.org/0009-0006-9720-940X>***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotidagi postkolonial yondashuv, marginalizm va nekropolitika hodisalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Milliy adabiy tafakkurda mustamlaka davrining ijtimoiy-madaniy hayotga ko‘rsatgan ta’siri va oqibatlari aks ettirilganligi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida Ashil Mbembe, Edvard Said, Homi Bhabha va Gayatri Spivakning nazariy qarashlari tanlangan. Asarlar tahlilida Sherzod Komil Xalil ijodi, xususan, “O‘lim labirinti”, “Biz yo‘q bo‘lamiz”, “Soqov baliqlar” va “Odam atoning so‘nggi avlodi” asarlari markaziy o‘rinni egallaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bu asarlarda mustamlakachilikning oqibatida yuzaga kelgan insonning ijtimoiy izolyatsiyasi, “o‘zgachalik” tuyg‘usi va o‘lim siyosatiga mahkumligi badiiy tarzda ifodalangan. Muallif global nekropolitika kontekstida shaxsiy va milliy marginallikni ochib beradi. U sobiq mustamlaka hududlarda etnik ozchilikni tashkil etgan va o‘lim oldida turli yo‘llar bilan “izolyatsiya qilingan” xalqlar taqdirini yoritadi. Xulosa qilib aytganda, postkolonializm, marginalizm va nekropolitika tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi nazariy yo‘nalishlar bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotida shaxs va hokimiyat, hayot va o‘lim, markaz va periferiya munosabatlari tahliliga yangicha ilmiy yondashuvni ifoda etadi.

**KALIT SO‘ZLAR**

Postkolonial yondashuv, nekrosiyosat, marginalizm, orientalizm, “boshqa”lik, madaniy assimilyatsiya.

**Received:** October 5, 2025**Accepted:** October 20, 2025**Available online:** November 16, 2025

<sup>28</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Tursunboyeva Sh. O‘zbek adabiyotida postkolonial yondashuv, marginalizm va nekrosiyosat fenomenlarining ifodalanishi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 405-417.

---

**THE REPRESENTATION OF POSTCOLONIAL APPROACH,  
MARGINALITY, AND NECROPOLITICS IN UZBEK LITERATURE**

*Tursunboyeva Shohzoda Kenjaboy qizi*  
*Independent Researcher of*  
*Gulistan State University,*  
*Gulistan, Uzbekistan*

*E-mail: [tursunboyevashahzoda98@gmail.com](mailto:tursunboyevashahzoda98@gmail.com)*  
*<https://orcid.org/0009-0006-9720-940X>*

---

**ABSTRACT**

This article analyzes the interrelationship and artistic expression of postcolonial approaches, marginalism, and necropolitics in Uzbek literature. It demonstrates how the influence and consequences of the colonial period on socio-cultural life are reflected in national literary thought. The study employs the theoretical perspectives of Achille Mbembe, Edward Said, Homi Bhabha, and Gayatri Spivak as its methodological foundation. In the analysis of literary works, the oeuvre of Sherzod Komil Xalil takes center stage, particularly his works “The Labyrinth of Death,” “We Will Cease to Exist,” “The Mute Fish,” and “The Last Generation of Adam.” The findings reveal that these works artistically depict the social isolation of individuals, the sense of “otherness,” and the subjection to necropolitics resulting from colonialism. The author portrays personal and national marginality within the context of global necropolitics. He illuminates the fate of ethnic minorities in former colonial territories who were “isolated” and faced death through various means. In conclusion, the concepts of postcolonialism, marginalism, and necropolitics are shown to be complementary theoretical approaches that offer a new scientific perspective for analyzing the relationships between individual and power, life and death, and center and periphery in Uzbek literature.

---

**KEY WORDS**

Postcolonial approach, necropolitics, marginality, orientalism, otherness, cultural assimilation, the voiceless.

**ОТРАЖЕНИЕ ПОСТКОЛОНИАЛЬНОГО ПОДХОДА,  
МАРГИНАЛИЗМА И НЕКРОПОЛИТИКИ  
В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

*Турсунбоева Шохзода Кенжабоевна*

*независимый исследователь,*

*Гулистанский государственный университет,*

*Гулистан, Узбекистан*

*E-mail: [tursunboyevashahzoda98@gmail.com](mailto:tursunboyevashahzoda98@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0009-0006-9720-940X>*

---

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется взаимосвязь феноменов постколониального подхода, маргинализма и некрополитики в узбекской литературе и их художественное выражение. В работе прослеживается влияния последствий колониального периода на социокультурную жизнь, нашедшее свое отражение в национальном литературном мышлении. Методологическую основу произведения составили теоретические взгляды Ашиля Мбембе, Эдварда Саида, Хоми Бхабха и Гаятри Спивак. В проведенном анализе центральное место занимает творчество Шерзода Комила Халила - в частности, его произведения «Лабиринт смерти», «Мы исчезнем», «Немые рыбы» и «Последнее поколение Адама». Результаты исследования показывают, что в этих произведениях художественно выражены социальная изоляция человека, чувство «инаковости» и подверженность политике смерти, ставшие результатом колониализма. Автор изображает личную и национальную маргинальность в контексте глобальной некрополитики. Он освещает судьбу народов, которые были этническими меньшинствами на территории бывших колоний и оказались различными способами «изолированы» перед лицом смерти. В заключение отмечается, что понятия постколониализма, маргинализма и некрополитики являются взаимодополняющими теоретическими направлениями, которые представляют новый научный подход к анализу отношений личности и власти, жизни и смерти, центра и периферии в узбекской литературе.

---

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

Постколониальный подход, некрополитика, маргинализм, ориентализм, инаковость, культурная ассимиляция, безгласные.

## KIRISH

XX–XXI asr madaniyat, san’at va siyosatda inson va hokimiyat, markaz va chet, hayot va o‘lim o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan bir qator nazariy yo‘nalishlar shakllandi. Shulardan muhimlari postkolonializm, marginalizm va nekrosiyosat nazariyalaridir. Ularning barchasi mohiyatan insonni chetlashtiruvchi tizimlarni fosh etadi: postkolonializm mustamlakachilikning madaniy oqibatlarini, marginalizm ijtimoiy chetlanish holatini, nekrosiyosat hokimiyatning o‘lim siyosatini tahlil qiladi. Adabiyot esa bu nazariyalarni aks ettiruvchi maydon sifatida xizmat qiladi, tarixiy xotirani tiklaydi, “boshqalar”ning ovozini eshitishga imkon yaratadi va erkinlik hamda adolat g‘oyalarini ilgari suradi. O‘zbek adabiyotida bu yondashuvlar asosida yaratilgan asarlar yo‘q emas va ularni tahlil qilish zamonaviy adabiyot va tanqidchilik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## ASOSIY QISM

Madaniyatshunoslik, adabiyot va siyosatshunoslikda qo‘llaniladigan postkolonializm nazariyasining XX asrning ikkinchi yarmida shakllanishi Edvard Said, Homi Bhabha, Gayatri Spivak kabi nomlar bilan bog‘liq. Postkolonializm mustamlakachilik natijasida yuzaga kelgan madaniy va ma’naviy hukmronlikni, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi “markaz - chekka” qarama-qarshiligini tahlil qiladi (Quayson A., 1998, 54). Badiiy asarni postkolonial yondashuv asosida tahlil qilish mustamlakachilik siyosatining turfa ko‘rinishlarini, insonlar hayoti va taqdiridagi o‘chmas izlarini davrning badiiy tafakkuri va ifoda tarziga qanday ta’sir ko‘rsatganini aniqlashga yordam beradi. Postkolonial yondashuvdagi asarlarni tahlil qilish mustamlakachilikni boshdan kechirgan xalqlarning “oldingi” va “keyingi” holatlarini o‘rgangan holda millat ongida, hayotida, tafakkurida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlaydi va tanqidiy xulosalaydi. Bu nazariya ayrim millatlarda mustaqillikka erishgandan keyin ham ularning hayoti, madaniyati va tafakkurida kolonial tuzumning izlari uzoq vaqt saqlanib qolishini ko‘rsatadi (Davlatova A., 2024, 11). Jumladan, Chinua Achebening “Things Fall Apart” (“Hamma narsa barbod bo‘ladi”) asarida “madaniy aralashuv” tushunchasi, ya’ni mustamlaka va mustamlakachi madaniyatining qorishmasi natijasida hosil bo‘ladigan aralash

madaniyat tufayli mustamlaka xalqlarning o'zligidan va madaniyatidan mahrum bo'lishi ko'rsatilgan.

Postkolonializmning asosiy tushunchalaridan biri — “boshqa”lik (“otherness”), ya'ni mustamlaka xalqlarning G'arb nazarida “biz”ga qarshi”, “farqli” deb ko'rsatilishidir. Edvard Saidning “Orientalizm” asarida G'arbnining “biz” va “boshqa”lar nuqtayi nazari bilan Sharqni ekzotik, irratsional sifatida tasvirlashi orqali ularni siyosiy jihatdan bo'ysundirish mexanizmi ochib beriladi, Sharq haqidagi stereotipli, idealizatsiyalangan yoki demonizatsiyalangan tasvirlarini qoralaydi. Asarda mustamlaka xalqlarga “the other” (“boshqa”) nuqtayi nazardan qarash, ularni past yoki chekka qatlam deb qabul qilish holati tanqid ostiga olinadi.

Postkolonial nazariya taqozo qiladigan yana bir tushuncha bu marginalizmdir. Marginalizm (lotincha margo – “chekka”) - falsafa, adabiyot va san'atda chetlanishni, jamiyatning asosiy oqimidan chetda qolgan kishi yoki ijtimoiy guruh tajribalarini aks ettirishga mo'ljallangan yondashuv hisoblanadi (Подопригора С. Я., Подопригора А. С., 2013, 217) Marginal inson – bu ijtimoiy, madaniy yoki siyosiy jihatdan chetga surilgan shaxsdir. Bunday insonlar odatda jamiyatning hukmron tizimi tomonidan “normal” me'yorlardan tashqarida deb baholanadi. Adabiyotda marginalizm aynan “boshqa” (the other) deb chetga suriladigan subyektlar hayotini namoyon qiladi. Postkolonial yondashuvda esa marginalizm mustamlaka ostidagi ovozsizlar (subaltern) nuqtayi nazarini markazga olib chiqadi (Spivak G., 1988, 271). Postkolonial sharoitda sobiq mustamlaka xalqlari aynan shunday marginal holatga tushadilar. Ular o'z ona tilidan, urf-odatidan, madaniy ildizlaridan uzilib, “ikki dunyo orasida” yashaydi. Marginal vaziyat “o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qolish imkoniyati bo'lmagan (odatda qandaydir tashqi ta'sirlar sababli) va yangi xususiyatlarni o'zlashtirishga qiziqishning yo'qligi tufayli yuzaga keladi. (Mirzakhmedova H., Abbosiy S., 2021, 73). Masalan, Ngũgĩ Thiong'o asarlarida g'arbona ta'lim olgan, ammo o'z xalqiga begonalashgan nigeriyaliklar aynan shunday “marginal” holatda tasvirlangan.

Marginal guruhlar ko'pincha mustamlakachi yoki zo'ravonlikka asoslangan mahalliy hukumat yuritgan nekrosiyosatning obyektiga aylanishadi, ya'ni hukmron

kuchlar ularga “ahamiyatsiz tanalar” sifatida qaraydi va ularning hayoti “qimmatli bo‘lmagan” deb hisoblanadi (Mehak B., Sandeep K. S., 2024, 5132). Shunga ko‘ra, nekrosiyosat tushunchasini o‘lim siyosati deb atash mumkin. Bu tushuncha kamerunlik faylasuf Axille Mbembe tomonidan 2003-yilda ilgari surilgan bo‘lib, u Mishel Fukoning “biopolitika” nazariyasini davom ettiradi. Fuko hokimiyatning “hayot ustidan nazorati” haqida yozgan bo‘lsa, Mbembe bu nazoratning eng keskin shaklini — “o‘lim siyosatini” tahlil qiladi. Axille Mbembe o‘zining “Nekropolitics” asarida “Eng mukammal nekrosiyosat laboratoriyasi – bu mustamlaka edi”, -deb ta’kidlaydi (Mbembe A., 2019, 14). Mustamlakachilar mahalliy aholining hayotini nazorat qilgan, kim yashashi va kim o‘lishini belgilagan. Shuning uchun mustamlakachilik tizimi o‘lim orqali hukmronlik mexanizmini yaratishi tufayli adabiyot va tarixda nekrosiyosat avvalo mustamlakachilik bosqini mavzusida dolzarbligini saqlaydi. Bu yondashuv, shuningdek, zo‘ravonlik, urush, qullik, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik mavzularida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, Toni Morrisonning “Suyukli” (“Beloved”) romanida qora tanlilarning hayoti va o‘limi ustidan nazorat qullik siyosati orqali amalga oshirilishi qullikdan ozod qilingan ayolning achchiq xotiralari asosida yoritib berilgan.

O‘zbek adabiyotida ham mustamlaka va undan keyingi davrning ijtimoiy va madaniy oqibatlari yoritilgan asarlar kam emas, biroq zamonaviy o‘zbek adabiyotining taniqli vakillaridan bo‘lgan Sherzod Komil Xalilning aksariyat asarlarida shaxsiy yoki ijtimoiy marginalizmni, postkolonial yondashuvdagi nekrosiyosat obyekti bo‘lgan mustamlaka xalqlarning taqdirini sobiq ittifoq tarkibidagi elatlar miqyosidagi keng qamrovida uchratish mumkinligi bilan ajralib turadi. Ajnabiy xalqlarning kishilarini va ijtimoiy og‘riqlarini asar markaziga qo‘yish bu ijodkorning o‘ziga xos uslubi deyish mumkin. Masalan, “O‘lim labirinti” hikoyasida Tilov chol obrazida shaxsiy marginallik – bir shaxsning jamiyatdan cheklanishi, ijtimoiy yakkalanishini ifodalagan bo‘lsa (Xalil Sh.K, 2024, 190-205), “Biz yo‘q bo‘lamiz”, “Soqov baliqlar” kabi hikoyalari hamda Temur Po‘latov bilan hammualliflikda yozilgan “Odam atoning so‘nggi avlodi” qissasida etnik ozchilik xalqlarning elat sifatida yo‘qolib ketishi sabablari – ijtimoiy

marginallikning va kolonial tahdid ostida nekrosiyosat qurboniga aylanishning badiiy talqini ko'rsatilgan. Garchi bu asarlarda ommaviy o'lim urush, bosqin, kasallik, ofat kabi keskin hodisalar tufayli jismonan sodir bo'lmasa-da, millatlar etnik jihatdan sekin-asta o'limga yuzlashtirilishi yoki "o'lim oldida tashlab ketilishi"ning ijtimoiy-siyosiy sabablari ko'rsatib berilgan. Aynan mana shu asarlarni nekrosiyosat nazariyasi bo'yicha tahlil qilganda, o'lim hodisasining naqadar siyosiy lashishini ko'rish mumkin. Nekrosiyosat bilan ish ko'ruvchi hukumat "kimni o'ldirish mumkin yoki kimni o'lim oldida tark etish" mumkinligi haqida qaror qabul qila oladi. Bu hokimiyatning shunday shakliki, ba'zi odamlar yoki guruhlarining hayoti qimmatli, boshqalarniki esa arziyasiz deb hisoblaydi. Nekrosiyosatda Freyd nazarda tutgan Tanatos hodisasi ahamiyat kasb etmay qoladi, chunki "Freyd Tanatosni to'g'ridan to'g'ri o'lim istagi deb tasniflagan bo'lsa, nekrosiyosat o'limni faqat kolonial kuch istagiga erishish yo'lidagi omil sifatida tan oladi" (Muzaffar M., 2025), ya'ni o'lim kishidagi o'lim istagi yoki hissi tufayli emas, davlat yoki hokimiyatning bilvosita yoki bevosita nazorati tufayli voqelanadi. Sherzod Komil Xalilning yuqoridagi asarlarida ifodalangan o'lim ana shu tanatosdan yiroq, butkul siyosiy va ijtimoiy vaziyat quroliga aylangan motiv edi.

Jumladan, "Biz yo'q bo'lamiz" hikoyasida yer yuzida barmoq bilan sanarli miqdorda qolgan kerek xalqining ijtimoiy og'riqlari haqida so'z boradi. "Rus og'aynim buni assimilyatsiya deydi. Men bilaman, ilgari biz ko'p edik. Bizni asta sekinlik bilan yo'qotishdi. Ko'chirish, chechak epidemiyasi, dengiz izg'irinlari, urushga yuborish, seniki kabi be'mani muhabbatlar – mana shundoq ham ozchilik bo'lgan kerekklarni nima yo'q qildi?", - deydi qissada qizining qo'lini so'rab kelgan o'zbek yigitiga rad javobini bera turib kerek ota.

"Odam atoning so'nggi avlodi" qissasida ham uzoq davom etgan madaniy assimilyatsiya va iqtisodiy ekspluatatsiya natijasida yuzaga kelgan etnik va madaniy aralashuv, o'ziga xoslikning yo'qolishi bilan sinalayotgan va millat sifatida yo'qlikka yuz tutayotgan ijor xalqi haqida so'z boradi.

Tabiiyki, asardagi etnik ozchilik guruhlar o'zining millat sifatida o'ziga xosligini saqlab qolish uchun urinishadi. "Biz yo'q bo'lamiz" hikoyasida kereklar

o‘rtasida o‘zaro nikoh aloqalarini mustahkamlash orqali xalqni yo‘qolib ketishdan saqlashga urinilsa, “Odam atoning so‘nggi avlodi” qissasida adabiyot o‘qituvchisi Mikola ijor xalqining nafaqat etnik birligi, balki madaniy merosini saqlab qolish uchun ham harakat qiladi: og‘zaki ijod namunalari, milliy kiyim va xo‘jalik buyumlarini yig‘ib yuradi va muzey tashkil qilishga urinadi.

“Odam atoning so‘nggi avlodi” qissasida biror xalqning yer yuzida mavjud bo‘lish jarayoni xuddi inson umriga qiyoslanadi, ya’ni Mikolaning nazariyasiga ko‘ra: “...alohida olingan inson – shaxs sifatida asalari katakchalaridagi minglab kataklardan biri sifatida bolalik, yoshlik, o‘rta yoshlik va keksalikni boshdan kechiradi. Shu shaxsning umumiyatini tashkil etuvchi xalq ham xuddi shu faoliyatni, ya’ni tug‘ilish, yashash va yo‘q bo‘lgunga qadar yashaydi. Xaqlarning tug‘ilishidan to qartayib yo‘q bo‘lgunga qadar besh yuz yildan ming yilgacha davr o‘tadi” (Xalil Sh.K., 2024, 46). Qissada insonning o‘limiga nafaqat ichki kasallik va turish-turmushidagi buzilishlar, balki tashqi tabiiy va iqtisodiy omillar ham ta’sir qilganidek, xaqlarning yo‘qolib ketishiga ham ularga qilinayotgan tashqi ta’sirlar: tabiiy sharoitlarning og‘irlashtirilishi, iqtisodiy siquvlar, til yoki yozuvning mustabid davlatniki bilan umumiyashtirilishi, madaniy o‘ziga xosliklaridan mahrum etilishi kabi harakatlar ijor xalqi misolida ko‘rsatib berilgan. Nikolino qishlog‘ida yashovchi bu kam sonli millat vakillari bir tomondan, bu yerda ishlab turgan, iqlimni zararlab ularning asosiy tirikchilik manbai – baliqlardan mahrum qilayotgan metall zavodi keltirayotgan zararlar bilan yashayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan yog‘ingarchilik kamligi va iqlim o‘zgarishi tufayli yoki qasddan (zavoddagilar tomonidan) sodir etilayotgan yong‘inlarda aziyat chekishardi. Ustiga-ustak, ularga aynan shu muammolarni hal qilish uchun moddiy yordam qisib qo‘yilgan edi. Bu omillar qishloqda odam soni kamayishi, turmush sharoitlari behad og‘irlashishiga sabab bo‘layotgandi. Qolaversa, ijorlarning madaniy etnik nomlanishi, tili va yozuvini ham “markaz”ga moslashtirishga urinishlar ketmoqda edi. Natijada, madaniy negizlaridan uzoqlashgan, turmush sharoiti og‘irlashgan xalq yo qirilib ketardi yoki boshqa elatlar tarkibiga singib ketishga majbur bo‘lardi. Sherzod Komil Xalilning “Soqov baliqlar” hikoyasi ayni shu mavzuda, Ittifoq



“markaz”i tomonidan majburiy ravishda ijor tilida o‘qitishdan mahrum qilingach, millat qanday qilib “ruslashib” ketishi, o‘z etnik kelib chiqishidan uyalish hissi paydo bo‘lishi va ona tilida so‘zlashni butkul unutishi haqida.

Bu siyosat faqat ijorlarni emas, ittifoq tarkibidagi ko‘p mayda elatlarning boshiga tushgandi. Buni qissadagi amaldor shunday silliqqina izohlaydi: “Ha, afsus, zaiflashgan xalqlar yo‘qolib ketmoqda, masalan, sizning qo‘shnilaringiz vodlar orasida ichkilikbozlik va buzuqlik odatiy holga aylangan... yaxshiyam inqilob tufayli bizda baquvvat va sog‘lom xalqlarni asrab qolish imkoniyati tug‘ildi”(Xalil Sh.K., 2024, 45). “Ko‘p millatli” yoki “ko‘p tilli” katta davlat tuzumida iqtisodiy va ijtimoiy hayotni soddalashtirish niqobi ostida ana shu davlat hududidagi ko‘pgina mayda millatlar etnik ildizidan uzoqlashtirildi. O‘zini “kuchli millat”, “katta og‘a” sanagan “markaz” esa o‘z qudratini kuchaytirish uchun ularning yo‘qolib ketishini nafaqat jimgina kuzatib turdi, balki bunga sharoit ham yaratib berdi.

Bu vaziyatga ramziy qiyos sifatida “Odam atoning so‘nggi avlodi” qissasida yer yuzidagi ilk qotillik mifiga ishora beriladi. Bu ishora butun umri ijor xalqini madaniyati va etnik kelib chiqish asosini saqlab qolishga uringan Mikolaning o‘limi bilan bog‘liq. U o‘z xalqiga mansub bo‘lgan bir bolani qutqarish chog‘ida dengizga cho‘kib o‘ladi. Ammo uni yo‘q qilgan dengiz ana shu qoyalarga to‘lqinlar bilan suv urib Mikola yuz qiyofasiga o‘xshab ketadigan shakl tushiradi. Bu sirli hodisani birinchi bo‘lib qishloqqa ijor xalqining madaniyatini o‘rganish uchun kelgan professor sezib qoladi va hayratga tushadi. U qoyaga muhrlangan suratga ishora qilarkan:

“ – Bu Odam Ato o‘g‘li Hobil, - dedi.

Aspirant Professorga to‘g‘ridan to‘g‘ri qarshi chiqmaslik uchun bosh irg‘agancha:

Balki Qobildir? – deb so‘radi.

Professor bunga javoban noaniq imo-ishoralari qilib zavodning tutun burqsib chiqayotgan mo‘rilarini ko‘rsatdi...” (Xalil Sh.K., 2024, 59).

Qobil va Hobil nomlari tilga olinishi insoniyat tarixidagi birinchi qotillikka ishora qiladi. Qobil va Hobil, diniy rivoyatlarga ko‘ra Odam alayhissalomning ikki

o'g'li bo'lib, ular Xudoga qurbonlik keltirganlarida, Xudo Hobilning qurbonligini qabul qiladi, lekin Qobilnikini rad etadi. Buning sababi shuki, Hobil eng yaxshisini, eng sog'lom qo'yini olib keltirgan edi, Qobil esa unchalik sifatli bo'lmagan hosilni taklif qildi. Qobil bu holatdan juda g'azablanib, ichida katta hasad va g'azab to'planadi. U o'zi uchun adolatsizlik bo'lgani o'ylab, Hobilni o'ldirishga qaror qiladi. Hobilning o'ldirilishi voqeasi yer yuziga to'kilgan birinchi inson qoni sifatida odamzodning qotilligi boshlanishiga tamal toshini qo'ygan ramziy syujetga aylangan. Qobilning qotilligi, uning hasadi, o'zgariga nisbatan nohaqligi va Xudoning hukmiga qarshi chiqishi bilan bog'liq edi. Eng dahshatlisi esa, Qobil va Hobil aka-ukalar, ularning kelib chiqishi qondoshligi.

Qissa mualliflari ham ayni shu nuqtaga e'tibor qaratishadi. Inson yaralgandan buyon bir-birining jinsi, irqi, millati yoki kelib chiqishiga ko'ra ajratib, yo'q qilib, adovat va xusumat urug'ini urchitayotgan insoniyatning o'zagi, kelib chiqishi bitta. Hammamiz qondoshining qonini yerga to'kayotgan aka-ukalarmiz!

### **XULOSA**

Demak, postkolonial yondashuv, marginalizm, nekrosiyosat nazariyalari bir-birini to'ldiruvchi, taqozo qiluvchi va hokimiyat-inson munosabatining turli darajalarini yoritadigan tushunchalar hisoblanadi. Sodda qilib aytganda, mustamlaka insonni marginal qiladi, marginal inson esa nekrosiyosat qurboniga aylanadi. Postkolonial tahlil bu jarayonning madaniy tomonini, nekrosiyosat esa siyosiy-jismoniy tomonini ochib beradi. Yuqorida tilga olingan Sherzod Komil Xalilning barcha asarlarda kolonial tuzum tufayli yuzaga kelgan marginalizm va nekrosiyosatning turli ko'rinishlari mavjud. Yozuvchi ijodida postkolonial tafakkurda o'zlikni izlash, madaniy assimilyatsiyaga qarshi ichki ruhiy kurash, marginal inson holati va "o'lim siyosati" qurboniga aylangan shaxs taqdiri chuqur badiiy ifoda topgan. Muallifning postkolonial yondashuvdagi asarlari obraz va syujet tanlashiga ko'ra milliy miqyosidan chiqib global qamrovga yetgani, sobiq ittifoq tarkibiga kirgan etnik ozchilikni tashkil etuvchi xalqlarning ijtimoiy-madaniy og'riqlarini ifodalagani esa alohida e'tiborga molik xususiyatdir.

Demak, postkolonializm yondashuvi milliy adabiyotimizda tarixiy xotirani tiklash, marginalizm esa jamiyatdan chetlatilgan subyektning markazga olib chiqish vazifasini bajaradi. Shuningdek, badiiy asarga nekrosiyosat nazariyasiga ko'ra yondashish (mustamlaka) hokimiyatning o'lim ustidan nazoratini badiiy shaklda tahlil qilish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu uch nazariya o'zbek adabiyotining zamonaviy bosqichida mustamlakachilik asoratlari, milliy o'zlik, erkinlik va inson qadrini falsafiy-badiiy nuqtayi nazardan o'rganish uchun yangi metodologik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quayson A. Postcolonialism // Routledge Encyclopedia of Philosophy / Taylor and Francis. 1998. URL: <https://www.rep.routledge.com/articles/thematic/postcolonialism/v-1>
2. Подопригора С. Я., Подопригора А. С. Философский словарь: [Маргинальность: Lat. margo — край]. 2-е изд. Ростов-на-Дону: Феникс, 2013. – С. 217.
3. Davlatova A. Zamonaviy o'zbek she'riyatida mustamlakachilik asoratlarning badiiy va psixologik ifodasini postkolonial tahlil metodi asosida o'rganish muammosi // Til va adabiyot.uz: elektron jurnal. – 2024, №11. – B. 11.
4. Mirzakhmedova H., Abbosiy, S. O'rganilayotgan mamlakatlar tillarini o'qitishda madaniyatlararo muloqot: o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021. – 96 b.
5. Spivak Gayatri Chakravorty. "Can the Subaltern Speak?" *In* Marxism and the Interpretation of Culture, edited by Cary Nelson and Lawrence Grossberg, Urbana: University of Illinois Press, 1988. – P. 271–313.
6. Mehak B., Sandeep, K. S. The Necropolitical Order: Indigenous Marginality And Sovereign Power In Settler Colonialism // Library Progress International. – 2024. Vol. 44, № 3. – P. 5131-5240.

7. Mbembe, A. *Necropolitics*. Durham: Duke University Press, 2019. URL: <https://www.dukeupress.edu/necropolitics>
8. Xalil Sh. K. *O‘lim labirinti*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – 208 b.
9. Tillayev T., Xalil, Sh. K. *Odam atoning so‘nggi avlodi // Sharq yulduzi*. – 2024. № 12. – B. 36–59.
10. Xalil Sh. K. *Biz yo‘q bo‘lamiz* [Elektron resurs]. URL: <https://mutolaa.com/book/biz-yo-q-bo-lamiz>

### REFERENCES:

1. Quayson, A. (1998). Postcolonialism. *In Routledge Encyclopedia of Philosophy*. Taylor & Francis. <https://www.rep.routledge.com/articles/thematic/postcolonialism/v-1>. <https://doi.org/10.4324/9780415249126-N093-1>
2. Podoprigora, S. Y., Podoprigora, A. S. (2013). *Philosophical Dictionary* (2nd ed.). Rostov-on-Don: Phoenix.
3. Davlatova, A. (2024). The problem of studying the artistic and psychological expression of colonial consequences in modern Uzbek poetry using the postcolonial analysis method. *Til va adabiyot.uz: Online Journal*, (11).
4. Mirzakhmedova, H., Abbosiy, S. (2021). *Intercultural communication in teaching the languages of studied countries: Teaching-methodical complex*. Tashkent: Tashkent State University of Oriental Studies.
5. Spivak, G. C. (1988). Can the Subaltern Speak? In C. Nelson & L. Grossberg (Eds.), *Marxism and the Interpretation of Culture* (pp. 271–313). Urbana: University of Illinois Press.
6. Mehak, B., Sandeep, K. S. (2024). The necropolitical order: Indigenous marginality and sovereign power in settler colonialism. *Library Progress International*, 44(3).
7. Mbembe, A. (2019). *Necropolitics*. Duke University Press. <https://www.dukeupress.edu/necropolitics>

8. Khalil, S. K. (2024). *The Labyrinth of Death*. Tashkent: New Age Generation.
9. Tillayev, T., & Khalil, S. K. (2024). *The Last Generation of the Son of Man*. Sharq Yulduzi, Issue 12.
10. Khalil, S. K. (2024). *We Will Cease to Exist*. <https://mutolaa.com/book/biz-yo-q-bo-lamiz>